

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2017 yil 16 noyabrdagi PQ-3389-son qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilishda test sinovlarini ochiq va oshkora o'tkazish hamda bilimli yoshlarni o'qishga qabul qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;
- Bakalavriatga test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali o'qishga qabul qilish bo'yicha ta'lim yo'nalishlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Q.V. Akmalov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi direktori M.M. Karimov va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

Qarorning to'liq matni